



Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 4-oktabr, № 208 (8551)

Chorshanba Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'zbekiston — Germaniya:

QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ISTIQBOLLI LOYIHALAR

Ayni paytda global iqlim isishi, unumdor erlarning degradatsiyaga uchrashi, qurg'oqchilik, yog'in-sochinlar va boshqa tabiiy ofatlar natijasida ekin erlariga va etishtirilayotgan mahsulotlarga zarar yetishi — bularning barchasi global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligiga putur yetkazuvchi omillardan.

Biz va jahon

Ayni paytda global iqlim isishi, unumdor erlarning degradatsiyaga uchrashi, qurg'oqchilik, yog'in-sochinlar va boshqa tabiiy ofatlar natijasida ekin erlariga va etishtirilayotgan mahsulotlarga zarar yetishi — bularning barchasi global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligiga putur yetkazuvchi omillardan.

Bu muammoga yechim topishda xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, xususan, global logistikani yo'lga qo'yish, ilg'or mamlakatlar tajribasini o'zlashtirish, qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni jarayonda yuqori taraqqiy etgan industrial-texnologik mamlakat bo'lgan Germaniya Federativ Respublikasi bilan hamkorlikning ba'zi qirralariga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

Germaniya — yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha dunyoda beshinchi, mahsulotlar eksporti bo'yicha to'rtinchi o'rinda turadigan davlat. Shu bilan birga, u agrar sohani rivojlantirish va mexanizatsiyalashga alohida

e'tibor qaratayotgan, zamonaviy agrosanoat texnologiyalarini tizimga safarbar eta olishi hisobiga, sohada aholining atigi 2-3 foizi band bo'lsa-da yuqori unumdorlik ko'rsatkichiga erishayotgan mamlakat hisoblanadi.

Masalan, mamlakat agrar tizimi aholining don mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining 80 foizini, shakar — 85 foiz, go'sht — 90 foiz, sut mahsulotlarining 100 foizini ta'minlay oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining uchdan bir qismini chorvachilik beradi.

Ayni paytda Germaniya qishloq xo'jaligining o'ziga xos iqlimi O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarining oziq-ovqat bozoriga kirishi uchun sharoit yaratadi. Hozirgi vaqtda "Shimol — G'arb" va "Shimol — Janub" yo'nalishlari bo'yicha yuk tashish muammolarining yechilayotgani O'zbekiston va Yevropa o'rtasidagi transport-logistika zanjirini yaxshilashga xizmat qiladi.

Aytilish joizki, ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlarimizning 84 million nufusga ega Germaniya bozoriga yetkazib berilishining istiqbolli porloq. Qishloq xo'jaligi

masalalari bo'yicha ikki mamlakat hukumatlararo ishchi guruhining yo'lga qo'yilgani bu boradagi munosabatlarni jadallashayotganidan dalolat beradi.

Agar sohadagi ikki tomonlama hamkorlik dasturlari agroklasterlar tashkil etishdan tortib mahsulot yetishtirish, yig'ish, saqlash va yetkazib berishning innovatsion usullarini joriy etishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olishi mumkin. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining 2019-yilgi Germaniyaga tashrifi chog'ida ikki mamlakatning ushbu sohada aloqalarini faollashtirishga imkon yaratildi. Xususan, O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligi va Germaniyaning "Deutsche Sparkassenstiftung fr Internationale Kooperation e.V." fondi o'rtasida Angliyaluv memorandumini imzoladi.

Memorandumda hamkorlikning asosiy yo'nalishlari belgilab olindi. Qishloq xo'jaligi sug'urtasini qo'llab-quvvatlash, O'zbekistonning muayyan banklaridagi mavjud aylanma kredit fondlardan foydalanishni kengaytirish, yosh fermerlarni tadbirkorlikka o'rgatishda biznes simulyatsiyalaridan foydalanish shular jumlasidan. Shuningdek, hujjatda "Risk radari" va "Yashil moliyaviy kompas" kabi moliya sohasidagi zamonaviy yondashuvlarni O'zbekiston agrar sohasida joriy etish masalalari ham o'z aksini topgan.

Qishloq xo'jaligi vazirligi va "JD East" dasturi o'rtasida imzolangan o'zaro hamkorlik shartnomasi qishloq xo'jaligi ta'limi, stajirovka va seminarlar tashkil etish masalalarini qamrab



oldi. Unga ko'ra "JD East" har yili o'zbekistonlik talaba va bitiruvchilar, shuningdek, yosh fermerlar uchun muddati 2 haftadan 12 oygacha bo'lgan qishloq xo'jaligi stajirovkalari va seminarlarini tashkil etmoqda. Bunda Germaniyada yashash va ta'lim olish uchun kerakli barcha rasmiyatchilik ushularni "JD East" o'z zimmasiga oldi.

Zaminimizda yetishtirilayotgan ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlarini Germaniya bozorlariga yetkazib berish, xalqaro ko'rgazmalar va yarmarkalarda O'zbekistonning brend mahsulotlari namoyishi, logistika kompaniyalarini tashkil etish, umuman, O'zbekistonning bu boradagi eksport salohiyatini namoyon qilish ikki tomonlama hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ikki tomonlama hamkorlik haqida so'z ketganda, Germaniya Federal

oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan ikki tomonlama hamkorlik dasturi ishlab chiqilganini ham ta'kidlash joiz. Mazkur hamkorlik dasturida O'zbekiston agrar kompleksi uchun bir qator muhim masalalar, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan organik qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi va ularni moliyalashtirish kabi masalalar o'rganilyapti.

O'tgan yili loyiha rahbari, Germaniyaning "GFA Consulting Group GmbH" kompaniyasi bosh agenti Malta Myuller boshchiligidagi delegatsiya Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bo'ldi. Mehmonlar universitet salohiyati va unda faoliyat olib borayotgan o'quv va ilmiy laboratoriyalar faoliyati bilan tanishdi.

Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

ERISHILGAN NATIJALAR, USTUVOR VAZIFALAR YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Unda dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning o'tgan haftada Germaniya Federativ Respublikasiga tashrifining ahamiyati, shuningdek, Qatar Amiri sheyx Tamim bin Hamad Ol Soniyning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'lgani, o'zaro hamkorlikning samarali istiqbollari, uning doirasida erishilgan natijalarga e'tibor qaratildi. O'z navbatida, partiyalar va ularning fraksiyalari oldida turgan vazifalar belgilab olindi. Shundan so'ng mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor muhim qonun loyihalari qizg'in muhokama qilindi.

Moliyaviy sog'lomlashtirish amaliyoti keng joriy etiladi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi munosabatlarni jadal rivojlanmoqda. Deputatlar Prezidentimizning ushbu davlatga tashrifi O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasidagi munosabatlarni

sifat va mazmun jihatdan boyitgan holda o'zaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar eshiklarini ochishini alohida qayd etildi. Bu esa, o'z navbatida, deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Shundan so'ng deputatlar "To'lovga qobiliyatsizlik sohasidagi qonunchilik takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini ko'rib chiqdilar.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, ularning manfaatlarini himoya qilish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, to'lovga qobiliyatsizlik holatiga tushib qolgan tadbirkorlik subyektlarining to'lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillarini qo'llash orqali ushbu islohotlar doirasida ularni moliyaviy sog'lomlashtirish amaliyotini keng joriy qilish talab etilyapti.

Taklif etilayotgan ushbu hujjat amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonunga muvofiqlashtirish orqali uning ijrosini samarali tashkil etishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhokamalar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida deputatlar tomonidan berilgan bir qator takliflar, fikr-mulohazalar loyiha matnida aks ettirilganini e'tibor olib, uni qo'llab-quvvatladilar.

KICHIK BIZNESGA KATTA IMTIYOZLAR

So'nggi olti yilda yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 martadan ziyod o'sdi. Tadbirkorlik subyektlarining soni 2 karra ko'paydi, sanoatdagi o'sish sur'atlari 40 foizdan oshdi, qisqa muddatda kambag'allikni 2 barobardan ziyod qisqartirishga erishildi.

Mulohaza

Bu dalillarni bejiz keltirmadik. Dunyoda davom etayotgan murakkab pandemiya va global iqtisodiy inqiroz oqibatlarini, notinchiliklar va ziddiyatlar fonida yuzaga kelayotgan oziq-ovqat va energetika xavfsizligini ta'minlash, iqlim o'zgarishi muammolari ro'y berayotgan bir paytda milliy iqtisodiyotimizdagi ijobiy o'zgarishlar, avvalo, mamlakatimizda Prezident rahbarligida barcha sohada olib borilayotgan islohotlarning yorqin samarasidir.

Davlatimiz rahbarining kichik tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik

muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berilayotgan e'tibor natijasida sezilarli natijalarga erishilyapti.

"Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori shu yil avgustda o'tkazilgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqot doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha "uzluksiz xizmatlar zanjiri"ni yaratishni maqsad qilgani bilan ahamiyatlidir.

E'tirof

Qo'biz YUNESKO ro'yxatidan joy oladi

Qo'biz jirovlar musiqiy cholg'u asbobi hisoblanadi. Uning yaratilishi juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Jirovlar g'oliblik dostonlarini ushbu cholg'u asbobida maromiga yetkazib kulayoshgan. Shuning uchun ham bugungi kunda qoraqalpog' milliy cholg'u asbobi qo'bizni YUNESKO ro'yxatiga kiritish ishlari olib borilmoqda.

Nukus shahrida YUNESKO tomonidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda nomoddiy madaniy merosni inventarizatsiya qilish va hujjatlashtirish, shu jumladan, qo'biz va jirov musiqiy merosini asrab-avaylashga qaratilgan o'quv dasturi tashkil etildi.

Tadbirlar "Qo'biz an'anaviy musiqi asbobini ishlab chiqarishni va uning jirov ijrosidagi an'analarni shoshilinch himoya qilish" loyihasi doirasida o'tkazildi.

Ushbu loyiha YUNESKOning 2003-yildagi Konvensiyasining nomoddiy madaniy merosi fondi tomonidan moliyalashtiriladi. Uning asosiy vazifasi qo'biz va jirov an'analarni asrab-avaylash orqali Qoraqalpog'istonning ushbu merosini muhofaza qilish, ularga alohida e'tibor qaratishdan iboratdir.

O'quv dasturi yakunida ishtirokchilarga tashkilotchilar tomonidan sertifikatlar topshirildi.

"Xalq so'zi".

Osiyo o'yinlari

O'ZBEKISTON SPORTCHILARINING YORQIN G'ALABALARI



Xitoyning Xanchjou shahrida davom etayotgan XIX Osiyo o'yinlarida o'zbekistonlik sportchilar navbatdagi medallar shodasini qo'lga kiritib, muxlis-u mutaxassislar olqishiga sazovor bo'lmoqda. Jumladan, kurashchilarimiz delegatsiyamiz hisobiga bir kunning o'zida

6 ta medal taqdim etildi. Vakillarimizdan Artyom Shturbabin (-66 kg.), Muhsin Hisomidinov (+90 kg.), Umid Esonov (-81 kg.), Hilola Ortiqboyeva (-52 kg.) oltin, Sitora Elmurodova (-52 kg.) kumush, Malikaxon Qahhorova (-70 kg.) bronza medalga egalik qildi. Yengil atletika bo'yicha O'zbekiston

jamoasi a'zosi Yekaterina Voronina Osiyo o'yinlarida kumush medalni qo'lga kiritdi. Ko'p kurash bo'yicha musobaqalarda qatnashgan vakilimiz 100 metrga to'siqlar osha yugurish yo'nalishida 14.48 soniya natija qayd etib, o'z hisobiga 912 ochko yozib qo'ydi. Balandlikka sakrash dasturida esa 1.82 metr ko'rsatkich

orqali 1003 ochkoni oldi. Y. Voronina har ikki dasturda mavsumdagi eng yaxshi natijasini ko'rsatdi.

Keyin esa yadro uloqtirishda 12.98 metr (726 ochko) natija ko'rsatib, uchinchi bo'ldi. 200 metr masofaga yugurishda 25.45 soniya bilan (846 ochko) o'z guruhida ikkinchi bo'lib keldi.



O'zbekiston — Germaniya:

QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ISTIQBOLLI LOYIHALAR



Mazkur loyihaga binoan mutaxassislar zamonaviy texnologiyalarni hisobga olgan holda barqaror ekin yetishtirish, chorvachilik sohasida ish yuritishning ilg'or Germaniya usullari, shuningdek, fermer xo'jaliklarini boshqarish ko'nikmalari O'zbekiston sharoitidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi va bunda universitet olimlari, tadqiqotchilari bilan yaqindan hamkorlik o'rnatiladi.

mahsulotlarini yetkazib berish, ushbu mamlakatning "Girlos injiniring" kompaniyasi bilan hamkorlikda O'zbekistonda muzlatkichli ombor qurish va "Buxers" kompaniyasi tomonidan kooperativ asosida meva-sabzavotlarni qayta ishlash bo'yicha shartnomalar imzolandi. Shu o'rinda, Toshkent davlat agrar universiteti Germaniyaning Weihenstephan-Triesdorf amaliy fanlar universiteti bilan faol hamkorlik qilyotganini qayd etib o'tish joiz. Ushbu universitet 1971-yilda Bavariya federal o'lkasida tashkil etilgan. U qishloq xo'jaligi sohasida malaka oshirish dasturlari va "Agrar menejment" xalqaro magistratura kursi bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi, dunyoning 60 dan ortiq ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qiladi.

Toshkent davlat agrar universiteti Germaniyaning Xalqaro hamkorlik bo'yicha agentligi bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyoda kasb-hunar ta'limi — oziq-ovqat ishlab chiqarish sohasida tizimli yondashuvlarni ilgari surish" xalqaro loyihasini amalga oshirishda ishtirok etmoqda. Qiymati 5,5 mln. yevro bo'lgan mazkur loyiha hamkorlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston bo'lib, uning asosiy maqsadi — Markaziy Osiyoda oziq-ovqat ishlab chiqarish sohasida dual/kooperativ kasb-hunar oliy ta'limining normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish, oliy kasb-hunar ta'limi darajasida bandlikka yo'naltirish, xalqaro sifat standartlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilayotir. Dual/kooperativ ta'limni rivojlantirish, ya'ni haqiqiy ish muhitidagi ta'limni universitetdagi ta'lim bilan, shuningdek, milliy kasb-hunar ta'limi tizimlarini mintaqaviy uyg'unlashtirish va muvofiqlashtirish ushbu loyiha maqsadi hisoblanadi. Loyiha universitetning "Agroiqtisodiyot va turizm" kafedrasida ta'lim beriladi. Dual/kooperativ dasturini amalga oshirishga qaratilgan. Mazkur loyiha amalga oshirishda ToshDAU olimlaridan tashkil topgan ishchi guruh ishtirok etmoqda.

Ishchi guruh tomonidan mazkur dual ta'lim dasturining mohiyati va zarurligi asoslandi, unga qabul qilishning mezonlari va o'qitishning natijalari ishlab chiqildi, ta'lim dasturi tarkibi shakllantirildi. Ta'lim berish va o'qitishning metodlari, parametrlari, baholash asoslanishi va mezonlari ishlab chiqildi. O'quv resurslari banki yaratildi va talabani qo'llab-quvvatlash mezonlari shakllantirildi. Har bir semestr 60 ECTS, 4 o'quv yili uchun 240 ECTSdan iborat fan modullari yaratildi.

Umuman, O'zbekiston va Germaniyaning agrar sohadagi hamkorligi istiqbolli. Yevropaning qudratli va mamlakati agrar sohada ham raqamli texnologiyalardan foydalanish, "aqli" qishloq xo'jaligini barpo etishda ilg'or hisoblanadi. Hozirgi kunda inson faoliyatining deyarli barcha sohalari raqamli texnologiyalardan foydalanish global miqyosda tez sur'atlar bilan o'smoqda. Qishloq xo'jaligi bundan mustasno emas, shu jumladan, O'zbekistonda ham so'nggi yillarda "raqamli" iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Raqamli agrotexnologiyalar sohasidagi ushbu tendensiyalar va yangiliklar bilan bog'liq holda O'zbekiston qishloq xo'jaligi sharoitida "aqli" qishloq xo'jaligini amalga oshirish ustuvor vazifalardan. Agar biz Germaniya

KICHIK BIZNESGA KATTA IMTIYOZLAR

Qaror bilan shu yil 1-oktabrdan boshlab "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish uchun 2023 — 2026-yillarda davlat mablag'lari hisobidan 6 trln. so'm va xalqaro moliya institutlarining 1,2 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi mablag'larini yo'naltirish belgilab berilgan. Kichik biznes subyektlari, ya'ni kamida bir yil mo-baynida faoliyat yuritayotgan yakkala tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, no-davlat ta'lim tashkilotlari, uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o'z biznes loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar "Kichik biznesga ko'maklashish markazi" mas'uliyati cheklangan jamiyatlariga onlayn ariza yuborish orqali dasturda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

Shuningdek, dasturda qatnashuvchi kichik tadbirkorlik subyektlariga ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 mlrd. so'mgacha kreditlar ajratish va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish va bunda 100 mln. so'mgacha kreditlarini garovsiz, 150 mln. so'mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi.

Shuningdek, dasturda qatnashuvchi kichik tadbirkorlik subyektlariga ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 mlrd. so'mgacha kreditlar ajratish va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish va bunda 100 mln. so'mgacha kreditlarni garovsiz, 150 mln. so'mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi.

Shuningdek, dasturda qatnashuvchi kichik tadbirkorlik subyektlariga ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 mlrd. so'mgacha kreditlar ajratish va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish va bunda 100 mln. so'mgacha kreditlarni garovsiz, 150 mln. so'mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati nazarda tutiladi.

Xulosa o'rnida aytganda, kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga yaratilayotgan keng va qulay imkoniyatlar fuqarolar bandligini ta'minlash orqali farovonligini oshirishga hamda jamiyat hayotida daxldorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kobul TURSUNOV, Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

ISHONCHLI VA SINALGAN SHERIKLIK

O'zbekiston Prezidentining Germaniya iqtisodiyoti Sharqiy qo'mitasi shafeligida tashkil etilgan Iqtisodiy forum ishidagi ishtiroki esa ijobiy rezonans uyg'otdi. O'z navbatida, O'zbekiston Germaniya kompaniyalari bilan bir qator istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirishni taklif qilmoqda. Jumladan, xaridorligi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun kooperatsiyani rivojlantirish. Ayni chog'da mamlakatimiz muqobil energetikani rivojlantirish borasida germaniyalik hamkorlar bilan muvaffaqiyatli tajriba va istiqbolli kooperatsiya loyihalaridan manfaatdor.

ham inkor qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda, qabul qiluvchi mamlakatda xorijiy biznes uchun sharoitni muntazam yaxshilab borish zarurati nuqtai nazaridan ayni yo'nalishdagi ishlarni davom ettirish juda muhim. Aytish joizki, iqlimi, suvi, tuprog'i, ob-havosi biznikidan farq qiladigan Germaniya O'zbekistonning betakror tabiati, saxiy quyoshi mahsuli, mirishkor dehqon, mohir bog'bonlarimiz qo'li bilan yetishtirgan mevasabzavot, ayniqsa, nemislar yaxshi ko'radigan ho'l va quritilgan meva, sof paxta va toza ipakdan tayyorlangan to'qimachilik mahsulotlari, tikilgan tayyor kiyim-kechak, shuningdek, sanoat mahsulotlari juda xaridorligi. Yurtimiz qishloq va suv xo'jaligi sohalari Germaniya kompaniyalari energiya samarador va raqamli texnologiyalarini jalb qilishga tayyor.

mumkin, "Markaziy Osiyo — Germaniya" formati ochiq muloqot hamda mintaqa mamlakatlari va Germaniya o'rtasidagi hamkorlikning yangi kun tartibini shakllantirish uchun samarali maydonga aylantirilmog'ida. Tashrif davomida ishbiarmonlik yo'nalishida sheriklikni kengaytirish, iqtisodiyot, investitsiya, transport, energetika va boshqa sohalarda kooperatsiyani chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari qo'shma iqtisodiy tadbirlarni muntazam o'tkazib borish, muqobil energetikani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi va suv resurslari boshqaruvi raqamlashtirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, moliyaviy vositalarni kengaytirish, ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, migratsiya va ko'chuvchanlik sohasida hamkorlik qilish bo'yicha qator aniq takliflarni ilgari surdi. Shu tariqa O'zbekiston bundan keyin ham mamlakatimizdagi

ishbiarmonlik tashabbuslari va qo'shma investitsiya loyihalariga har tomonlama ko'maklashishga, Germaniya biznesi uchun katta imkoniyatlarini taqdim etishga tayyorligini amalda tasdiqladi. Muxtasar aytganda, Berlinda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari va Germaniya yetakchilarining oliy darajadagi birinchi sammiti o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish va kengaytirish, O'zbekiston bilan ushbu Yevropa davlati o'rtasidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan boyitgan holda o'zaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar eishigini ochadi. Shu jihatdan, bu tashrif mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga yangi sur'at bag'ishlaydi, deb baralla aytamiz.

Aktam HAITOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari.

ERISHILGAN NATIJALAR, USTUVOR VAZIFALAR YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

Intellektual mulk ishonchli himoya qilinadi O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishi avvalida 1-oktabr kuni keng nishonlangan O'qituvchi va murabbiylar kunining ahamiyatiga to'xtalgan fraksiya rahbari Alisher Qodirov bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasiga 33 trln. so'm ajratilayotgani, bu umumiy byudjet mablag'ining qariyb 20 foizini tashkil qilishini ta'kidladi.

"Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning 121-moddasiga axborot resursi egasining intellektual, shu jumladan, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi shaxsiy javobgarligini oshirish nazarda tutilgan qo'shimcha kiritilmoqda. Deputatlarning fikricha, bu orqali veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot resurslarida noqonuniy foydalanishning oldi olinadi hamda axborot-kommunikatsiya muhitida intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning samarali himoyasi ta'minlanadi.

huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining qaror va harakatlari (harakatsizligi) ustidan ma'muriy sudlarga murojaat qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiriladi. Muhokamalar davomida fraksiya a'zolari partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, qonun loyihasini takomillashtirish yuzasidan bir qator takliflarni o'rtaga tashladi. Loyihadagi ayrim normalar yuzasidan ko'plab savollar ko'tarildi.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasini muhokama qilar ekan, uning naqadar muhimligi va inson mehnati, ya'ni intellektual mulk huquqlari himoyalanshiga xizmat qilishini ta'kidlab, axborot resursi egasining shaxsiy javobgarligini oshirish qator qonun buzilish holatlarining oldini olishga zamin yaratishini qayd etdilar. Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan ma'qullandi.



Aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun yana bir qulaylik

Deputatlar shundan so'ng "Intellektual mulkni ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 121-moddasiga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasini ko'rib chiqdilar. So'nggi yillarda mamlakatda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq huquqbuzarliklar soni oshib boryapti. Xususan, 2020-yilda 81 ta qonunbuzilish holati aniqlangan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 887 tani, 2022-yilda esa 1209 tani tashkil etgan va ularning 31 foizi internetdan foydalanilgan holda sodir etilmog'ida.

Yig'ilishda ushbu qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ma'muriy sudlarga murojaat qilishda fuqarolarga yanada qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan o'zgartirish kiritish haqida"gi qonun loyihasi O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida atroflicha ko'rib chiqildi. Ta'kidlanganidek, mazkur qonun loyihasi bilan fuqarolarga davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining qaror va harakatlari (harakatsizligi) ustidan ma'muriy sudlarga beriladigan murojaatlarining barchasi bo'yicha davlat boji pasaytirilmog'ida.

Qonun tashabbuskorlari har bir taklif asosli ekanini, ularning aksariyati loyihani pishiq-puxta holatga keltirish va maromiga yetkazish jarayonida inobatga olinishini qayd etdi. Ko'tarilgan barcha savollar yuzasidan ham aniq javoblar berildi. Qizg'in davom etgan bahs-munozara, savol-javob va tortishuvlardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan ma'qullandi.

Yig'ilishda shuningdek, "Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham ko'rib chiqildi. Qayd etilganidek, ushbu qonun loyihasi bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda. Ya'ni 13 ta qonunga faktlarni tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlar talab qilmaslik bo'yicha tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilayotgan bo'lsa, 2 ta qonun bilan ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish muddatlari qisqartirilmoqda. Masalan, ommaviy axborot vositasini ro'yxatdan o'tkazish muddatini 15 kundan 10 kunga qisqartirish belgilanayotir.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida yuqoridagi qonun loyihalari bilan bir qatorda "Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi atroflicha ko'rib chiqildi. Ta'kidlanganidek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun "Servis davlat" tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish borasida ustuvor maqsad va vazifalar belgilangan.

kompozit va proaktiv tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini kamida 40 taga oshirish ko'zda tutilgan. Ko'rib chiqilgan qonun loyihasi bilan davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish, jumladan, diplom, litsenziya, ruxsatnoma, davlat boji, yig'imlar va boshqa to'lovlar to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar kabi 15 ta faktlarni tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlar talab qilishni bekor qilish belgilanmoqda. Yig'ilishda deputatlar qonun loyihasining qabul qilinishi davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini tartibga solish, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, davlat xizmatlarini ko'rsatganlik uchun undiriladigan to'lov miqdorlarini kamaytirish hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish muddatlarini qisqartirishga xizmat qilishini qayd etdilar. Yig'ilishlarda fraksiyalar vakolatiga taalluqli boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi holda kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

AKADEMIK NAZAR TO'RAYEV

O'zbekiston ilm-fani og'ir judolikka uchradi.

Fizikaviy elektronika sohasidagi yirik olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Nazar Yo'ldoshevich To'rayev 2023-yil 3-oktabr kuni 85 yoshida vafot etdi.



Nazar To'rayev 1938-yil 19-mayda Surxondaryo viloyatining Denov shahrida tug'ildi. 1961-yili Samarqand davlat universitetini tamomlab, mehnat faoliyatini Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi institutida kichik ilmiy xodim lavozimida boshladi. Zahmatkash olim o'zining 60 yillik mehnat faoliyati davomida Yadro fizikasi instituti aspiranti, Elektronika instituti ilmiy kotibi, Toshkent politexnika instituti kafedra mudiri, Termiz davlat universiteti rektori, Fanlar akademiyasining "FANUM" ilmiy-o'quv markazi direktori kabi mas'ul lavozimlarda samarali faoliyat ko'rsatib, mamlakatimiz ilm-fan sohasini taraqqiy ettirish, yetuk kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo'shdi.

U 1968-yilda nomzodlik, 1981-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 2000-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining a'zosi etib saylandi.

Nazar To'rayev mamlakatimiz va xalqaro ilmiy jamoatchilik o'rtasida fizikaviy elektronika yo'nalishida maktab yaratgan olim sifatida katta hurmat va e'tiborga sazovor bo'ldi.

Fidoi olimning fizikaviy elektronikaning nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan ko'plab maqolalari, monografiya va o'quv-metodik qo'llanmalari chop etilgan.

Mehribon va jonkuyar ustoz sifatida ko'plab yoshlarga ilm-fan asoslaridan saboq bergan. Uning rahbarligida 10 nafardan ortiq fan doktori va 20 nafarga yaqin fan nomzodlari tayyorlandi.

Nazar To'rayev jamoat ishlarida ham faol ishtirok etdi. 1990 — 1995-yillarda mamlakatimiz parlamenti deputati sifatida milliy mustaqilligimizning huquqiy poaydevorini mustahkamlashda jombozlik ko'rsatdi.

Akademik Nazar To'rayevning mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish borasidagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi" faxriy unvoni, "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlangan edi.

Atqoli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Nazar To'rayevning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

Sh. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV,
A. ARIPOV, B. YO'LDOSHEV

Bugunning gapi

Ona zamin, suv va havo, yer osti qazilmalari — xalqimiz boyligi. Ular hayotiy ehtiyojlarimizni ta'minlash barobarida bizga omonat, kelajak avlodlarning ham haqqi ekanligini unutmasligimiz zarur. Binobarin, bugungi kunda tabiat ato etgan bu ne'matlardan oqilona foydalanish, uni asrab-avaylab ertangi kunga ham qoldirish insoniyatning global vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ayni masala taraqqiyot shiddatli tus olgan keyingi yillarda yanada dolzarblik kasb etayotir. Sababi dunyoda chuchuk suv tanqisligi kuchaymoqda, havoning ifloslanish darajasi ortyapti, o'rmonlar qisqarmoqda. Bunday tashvishli holatlar biz uchun ham begona emas.

TABIY BOYLIKLARDA KELAJAK AVLODLARNING HAM HAQQI BOR

Daxldorlik va javobgarlik hissi

— Bunday pallada faqat faol amaliy harakatlar bilangina ekologik muvozanat buzilishini to'xtatib qolish mumkin, — deydi Namangan viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i A'zamjon Jallilov. — Hukumatimiz, mas'ul idoralar sa'y-harakati, qolaversa, jamoatchilikning faol ishtiroki bilan tabiiy boyliklarni avaylab-asrash va tejab-tergab foydalanish holda kelajak avlodga yetkazish yuzasidan olib borilayotgan ishlar tobora kuchaytirilayotganidan maqsad-muddao ham aslida shu.

Aytish kerakki, boshqa hududlar qatori Namanganda ham ko'z qorachig'idek ehtiyojlash zarur bo'lgan tabiiy resurslar bisyor. Birgina obihayot manbalarini olib ko'raylik. 154 kilometrlik uzunlikda oqib o'tuvchi Norin, Qoradaryo va Sirdaryo, 2488 kilometrlik masofaga cho'zilgan 23 ta kanal va soylar, uchta yer osti chuchuk suvlari hosil bo'ladigan hududlar — ulkan boylik. Bunga qo'shimcha katta hajmdagi hosildor yerlar, qazilma boylik, o'rmon hamda daraxtzorlar ham inson mehriiga muhoj.

Sir emas, o'tgan asrning so'nggi choragida paxta maydonlarini kengaytirish maqsadida qo'riq yerlar ayovsiz o'zlashtirilishi hisobiga daryo va kanallar suvi kamayib, o'rmon va yaylovlar keskin qisqardi. Kech bo'lsa ham endilikda tabiiy resurslarning barchasi muhofazaga olingan.

Birinchi navbatda, suv manbalaridan belgilangan tartibda foydalanish qat'iy nazoratda. Ochiq suv havzalarini ifloslantirmaslik, suv isrof bo'lishining oldini olish maqsadida doimiy reytda monitoring kuzatuvlari yo'lga qo'yilgan.

Masalan, joriy yilning o'tgan davrida ayni yo'nalishlar bo'yicha 49 holatda qonunbuzilish

aniqlanib, huquqbuzarlarga nisbatan 48,9 mln. so'm miqdorida ma'muriy chora ko'ridi. Ular orasida oqova suvlarni ochiq havzalara va joy relyefiga tashlab kelgan qator ishlab chiqarish korxonalari bor. Bundan tashqari, Pop, Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlarida sohilbo'yi muhofaza mintaqasini o'zbo'shimchalik bilan dam olish va umumiy ovqatlanish maskanlariga aylantirish holatlariga barham berildi. Joylarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun tanlanayotgan obyektlardan 20 tasi sohilbo'yi mintaqalari doirasiga kirganligi uchun ushbu loyihalarga rad javobi berildi.

120 ta qonunbuzilishi: ko'pmi yoki oz'?

Tabiatga shafqatsizlarcha munosabat ko'rinishidagi qonunbuzarlik holatlariga qarshi kurashish ekologlar kun tartibidagi eng dolzarb vazifalardan. Ayni jarayonda har bir yurtdoshimizda daxldorlik va javobgarlik tuyg'usini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega.

— Joriy yilning sakkiz oyi davomida birgina o'simlik dunyosini muhofaza qilish bo'yicha 120 ta qonunbuzilish holatlarini aniqladik, — deydi boshqarmaning bioxilma-xillikni asrash, kadastirini yuritish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Nodirbek Turg'unov. — Aybdorlarga nisbatan 216,3 mln. so'm miqdorida moliyaviy jazo ko'llanildi. Misol uchun, Chortoq tumanining Iftixor mahallasida yashovchi Abdulvali Tursunov hovlisining old qismidagi 10 tup qimmatbaho navli 35 — 40 yoshli qirim qarag'ayini o'zbo'shimchalik bilan kesgan. Tabiatga keltirilgan zarar esa naqd 693 mln. so'mga baholandi.

Mingbuloq tumaniga qarashli Momoxon qishlog'i fuqarosi Dilshod Arziqulovning xurmacha qilig'ini esa hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. U to'rt nafar mahalladoshi bilan



Sirdaryoning Pop tumanidan oqib o'tuvchi qismida elektr toki yordamida 124 dona baliqqa qiron keltirib, bu bilan 128,5 mln. so'm zarar yetkazgan. Brakoniyerning qonunbuzarligiga qat'iy chora ko'rilib, umrining uch yilini panjara ortida o'tkazadigan bo'ldi.

Viloyatda atrof-muhitni asrab-avaylash bo'yicha belgilangan me'yoriy hujjatlarga bilib-bilmay amal qilmayotgan shaxslar orasida suv manbalari o'zanidan o'zbo'shimchalik bilan noruda materiallar qazib olishga ruju qo'nganlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Masalan, davlat inspektorlari tomonidan o'tkazilgan reydlar chog'ida 17 kishi ekskavator bilan daryodan qum-shag'al qazib olayotgan paytda qo'lga tushdi. Bundan tashqari, 29 holatda yer osti boyliklarini muhofaza qilish va undan foydalanish talablari buzilganligi aniqlandi.

Albatta, tabiat ne'matlariga zarar yetkazish bo'yicha qonunbuzarlik bitta bo'lsa ham ko'p. Mashhur yozuvchi Chingiz Aytmatov e'tirof etganidek, har bir daraxt, ko'cha yoki suv boshiga bittadan nazoratchi qo'yib qo'yishning imkoni yo'q. Ona tabiati asrashga nisbatan nazoratchi, vijdonli qorovullik tuyg'usi har bir insonning qalbidan o'tishi kerak.

Aqli odam faqat buguni bilan yashamaydi

Tabiatni muhofaza qilishda qat'iy qo'riqlanadigan hududlar, milliy parklar tashkil etish orqali yo'qolib borayotgan turli saqlab qolish va kelajak avlodga yetkazishning maqbul yo'llari tajribadan o'tgan. Namanganda ham bu borada istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda. Puv tumanining tog'lar etagida joylashgan Guliston mahallasi hududida 10 ming gektar maydondan o'rmon oladigan milliy bog' shunday loyihalarning dehochasi.

Gap shundaki, bu yerda o'simlik va hayvonot dunyosining betakror namunalari mavjud

bo'lib, aksariyati "Qizil kitob"dan o'rmon olgan va qat'iy muhofazaga muhoj. Ular orasida lola, lolaqizg'aldoq va boshqa o'ndan ortiq dorivor g'oyohlar, tog'li joylarda jayra, bo'ri, qashqir, tulki, kiyik, hatto ayiqqacha bor. Tog' burguti, ukki va boshqa turfa qushlar ham uchraydi.

Bu yerdagi flora va faunani tabiiy holda asrab qolish va ko'paytirish maqsadida muhofazaga olingan hudud to'la kadastr qilindi. Ayni paytda yangi tashkil etilayotgan milliy bog'da 30 ga yaqin mutaxassisdan iborat tabiat qo'riqchilari faoliyat olib boryapti.

Mingbuloq tumanidagi Oqqum cho'l bag'ridagi 1000 gektarli qum barxanalarini ham qo'riqlanadigan tabiiy meros obyektiga aylantirish harakati boshlangan. Echkiemar, ko'lvor ilon, agama, miqqiy, cho'l burguti, so'firo'g'ay singari noyob turli mavjud bo'lgan qumliklarda to'rang'il, saksuvul, yulg'on, qizilmiya, shuvoq singari buta va o'simliklar o'sadi. Keyingi paytlarda asosan qish faslida butalarni o'tin uchun kesish, ko'lvor ilon va echkiemar, qushlarni noqonuniy tutish holatlari ko'paygani hududning muhofaza masalasini dolzarb qilib qo'ydi.

Atrof-muhit va tabiiy boyliklarimizni kelajak avlodlarga hech qursa o'z holicha yetkazish masalasi kun sayin dolzarb bo'lib borayotgan ayni pallada aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish masalasini keskin qilib qo'yish taqozo qilinadi. Bunga aytaylik, birgina tizim xodimlari kuchi bilan erishish qiyin. Joylarda tabiat muhofazasi, tozalik bo'yicha ko'ngillilar guruhini tashkil etish, aniqlangan har bir qonun buzilishiga nisbatan qat'iy chora ko'rish, muhimi, ekologik targ'ibotni samarali yo'lga qo'yish, albatta, o'z natijasini beradi. Viloyatda ayni yo'nalishdagi ishlar birmuncha jonlangani ham shunday xulosaga kelishimizga asos bo'ladi.

Quadratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so'zi").

SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA BARCHA IMKONİYATLAR ISHGA SOLINMOQDA

Suv resurslaridan unumli foydalanish, uni asrab-avaylash, tejab ishlatish bugungi kunda dolzarb masalalardan sanaladi. Zero, suv — hayot manbai. Undan samarali foydalanish insoniyat taraqqiyotiga, atrof-muhit barqarorligiga xizmat qiladi. Shu bois Markaziy Osiyo mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekistonda ham bu borada aniq chora-tadbirlar ro'yobga chiqarilmoqda.

Mushohada

Tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yurtimizda 2021 — 2023-yillar davomida suv resurslaridan oqilona foydalanishda muayyan ishlar amalga oshirilgan. Xususan, 2021-yilda kommunal kanalizatsiya oqova suv tozalash inshootlaridan yer usti suv obyektlariga tashlanadigan oqova suvlarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish maqsadida 33 ta yirik shaharning kommunal oqova tozalash inshootlari o'rganilgan va ekologik nazorat ishlari olib borilgan.

Avtomobil yuvish shoxobchalaridagi holat bilan tanishilganda, ayrim kamchiliklar ko'zga tashlangan. Natijada jami 2170 ta avtomobil yuvish

shoxobchasidan 1602 tasi xatlovdan o'tkazilgan, 361 tasida suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomasi, 460 tasida ichki oqova tozalash inshootlari mavjud emasligi va 277 tasida boshqa qonunbuzilish holatlari aniqlangan.

Suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish yuzasidan o'tkazilgan reytda va tekshiruvlar davomida 1 ming 588 nafar shaxsdan qariyb 2 mlrd. 609 mln. so'm jarima undirilgan.

2021-yilda amalga oshirilgan tizimli sa'y-harakatlar natijasida 2,76 mln. kub metr suv iqtisod qilingan.

O'z navbatida, 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Prezident Farmoni ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar ko'lamini yanada kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi, desak, ayni haqiqat. Binobarin, unga ko'ra 14 ta suv obyektlarini muhofaza qilish zonalarini sohilbo'yi mintaqalarini belgilash ko'zda tutilgan va bu bo'yicha loyihalar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. 2023-yilda 76 ta korxonada lokal oqova suv tozalash inshootlari qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish bo'yicha 77 ta korxonada lokal tozalash inshootlari rekonstruksiya qilindi va qurib bitkazildi.

Shuningdek, o'tgan yili poxtatimdagib qator kanallarning ma'lum uzunlikdagi qismlarida tozalash va obodonlashtirish ishlari olib borilgan e'tiborga molik. Bu Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ko'kalamzorlashtirish darajasini oshirishda ayni muddao bo'ldi.

Bundan tashqari, joylarda

tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanishda bo'lgan 3886 ta yer osti quduqlari o'rganilganda ayrim muammolarni ko'zga tashlandi. Xususan, mamlakatimiz bo'yicha 2299 ta yer osti quduqlari tegishli hujjatsiz foydalanib kelinagan aniqlandi hamda uni bartaraf etish choralarini ko'rdi.

Albatta, bu boradagi sa'y-harakatlar joriy yilda ham izchil davom ettirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 7-dekabrda "Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan suv sathi 5 metr dan ortiq pasayib ketgan hududlar, chunonchi, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarining ayrim hududlarida moratoriy e'lon qilindi. Yer osti suvlari quduqlarini burg'itilish hamda mavjud quduqlardan yerlarni suv tejoychi texnologiyalar sug'orish taqiqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-martdagi "Aydar-Arnasoy

ko'llar tizimi boshqaruvi tashkil etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida ham bir qator ishlar olib borilmoqda. Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridagi kollektorlardan ko'llar tizimiga suvlarning kelib quyilishi holati va suvlarning sifati nazorat qilinayotgani, Jizzax va Navoiy viloyatlari hokimliklari tomonidan cho'llanishga moyil hududlar ko'kalamzorlashtirilayotgani shular jumlasidandir.

Xulosa o'rniida aytganda, hozirgi vaqtda mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishda barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Ayniqsa, daryolar, ko'llar va botqoq yerlar kabi suv bilan bog'liq tizimlarga alohida e'tibor qaratilayotgani ekologik muvozanatni saqlash, bioxilma-xillikni saqlashda muhim o'rinni tutaypti. Zero, suv sarfini kamaytirish, irrigatsiya tizimlari samaradorligini oshirish, modernizatsiya va texnologik innovatsiyalarni joriy etish, oqilona rejalashtirish va boshqarishga oid ko'rilayotgan muhim chora-tadbirlar pirovardida, iqtisodiy samaraga erishish hamda tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

G'ayrat SAFAROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Dil so'zi

TA'LIMGA E'TIBOR — KELAJAKKA E'TIBOR

Har bir kishi mehnati e'tirof etilsa, chin dildan quvonadi, yanada shijoat bilan ishlashga rag'bat sezadi. Ammo e'tirofning o'ziga yarasha mas'uliyat ham bor. Davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanganlar qatorida o'z ism-sharifimni o'qib, buni yurakdan his etdim.

Gap shundaki, bayram arafasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlanib, institutimiz rahbariyati ushbu mukofotni tantanali ravishda topshirgan edi. Oradan bir kun o'tib, Prezidentimizning Farmoniga ko'ra "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandim. Qolaversa, davlatimiz rahbarining o'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan tabrigi sohaga bo'lgan muhabbatimni ikki karra oshirdi.

Chorak asrlik ta'lim sohasidagi mehnatlarim davomida 180 dan ortiq ilmiy, o'quv-uslubiy maqolalar va bitta monografiyani nashrdan chiqarib, bir qator xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etdim.

Globallasuv va mafkuraviy kurashlar avj olgan bugungi davrda rivojlanayotgan mamlakatlarda kelajagi, asosan, ta'lim-tarbiya kuchiga tayanadi. Salohiyati yuksak mutaxassislar kamolga yetsa, davlatni ham, jamiyatni ham barqaror taraqqiyot sari boshlaydi.

Bugungi kunda men faoliyat yuritayotgan Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida 14,5 mingdan ziyod talabalar tahsil oladi. Ularga 500 nafarga yaqin professor-o'qituvchilar jamoasi ta'lim berib kelishayotir. Biz, o'qituvchilar ushbu yoshlarni yuritmiz taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shadigan yetuk kadrlar qilib tayorlashdek mas'uliyatli va sharafli ishni zimmamizga olganmiz. Mehnatimizning yuksak e'tirofi esa bizga yoshlarga ta'lim berish, ilmiy qilishga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga shijoat bag'ishlaydi.

Men ham shu ishga bel bog'lagan insonlar qatorida o'z mehnatim, harakatim va izlanishlarim bilan sidqildan xizmat qilaman.

Amangeldi KAMALOV,
Nukus davlat pedagogika institutining Fizika o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri,
"Do'stlik" ordeni sohibi.

OTA-ONANGDAY MEHRIBON VATAN...

Chiroqchi tumani markazida qurib bitkazilgan 7 qavatli, 47 ta xonadonga mo'ljallangan uy yaqin kunlar ichida o'z egalariiga topshirilish arafasida. Shunga qaramay, bu uydagi uchta xonadon hozirning o'zida to'liq ta'mirlanib, mebel va barcha zarur uy-ro'zg'or buyumlari bilan jihozlangan. Va eng asosiysi, ushbu uch xonadon o'z egalariiga bepul topshiriladi.

G'amxo'rlik

— Bu xonadonlar tumanimizda istiqomat qilayotgan uch nafar chin yetim yoshlar uchun tuman hokimligi tomonidan belgilangan tartibda xarid qilindi, — deydi Chiroqchi tumani hokimligi bolalarni himoya qilish shu'basini mudiri Risolat Namozova. — Ushbu xonadon sohiblari — Normurod Qayumov ayni vaqtda Namangan davlat Universitetida, Og'abek Xudoyberdiyev Chirchiq pedagogika institutida tahsil olmoqda. Ularning yana biri — Og'abek Egamberdiyev esa tadbirkor. Bu yoshlar ota-onasiz, qarindoshlari qo'lida katta bo'lishgan. Davlatimizning ijtimoiy himoyaga muhoj yoshlarga qaratayotgan yuksak e'tibori, g'amxo'rligi natijasida bugun ular hech bir tengdoshidan kam emas. Oliy ma'lumot olishyapti, uy-joyi tayyor. Kelgusida oila qurishi, ishga joylashish bilan bog'liq masalalar ham e'tibor markazida.

Ta'kidlash joiz, 2021-yil 9-avgustdagi "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan

mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tizimli ijtimoiy himoya qilishda muhim dasturlamal bo'ldi. Ayniqsa, ushbu hujjat bilan uy-joyga muhoj chin yetim va ota-onasiz qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarni uy-joy bilan ta'minlashning aniq tartib-tamoyillari belgilab berilishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Qarorga asosan, chin yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning muammolari o'rganilib, ularning ehtiyojidan kelib chiqqan holda zarur ko'mak ko'rsatilyapti. Jumladan, uy-joyga muhoj deb topilgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlar uy-joy bilan ta'minlanmoqda.

Shu asosda Qashqadaryo viloyatida ayni vaqtgacha yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 69 nafar yosh uy-joy bilan ta'minlandi. Yana 40 dan ziyod yoshlar uchun uy-joylar xarid qilingan bo'lib, yaqin vaqt ichida ular ham o'z egalariiga topshiriladi.

Xalqimiz "Uyi borming o'yi yo'q" deb bekorga aytishmagan. Uy-joy inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-onasiz, yetimlikda katta bo'lgan uy-joyga muhoj yoshlarning voyaga yetishi bilan o'z boshpanasiga ega bo'layotgani esa ularning jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim omil bo'layotir, yangi rejalar, maqsadlar sari ruhlantirilmog'ida.

Masalan, yana bir qahramonimiz — Yodgor Tog'ayev ham Chiroqchi tumanining G'allachi qishlog'idan. Yoshligida ota-onasidan yetim qolgan Yodgor buvi va bobosi qo'lida katta bo'lgan. Tuman hokimligi tomonidan o'tkazilgan o'rganishlarda Yodgorning uy-joyga muhojligi aniqlangach, ucha tuman markazidan ikki xonali uy barcha jihozlari bilan olib berildi. Davlatimizning bunday g'amxo'rligidan ruhlangan Yodgorning qarindoshlari ham qarab turishmadi: darrov to'y boshlashdi.

Biz yo'qlab borgan kuni Yodgor o'zi ishlayotgan qurilish tashkilotining ishi bilan Surxondaryo viloyatiga xizmat safariga ketgan ekan. Turmush o'rtog'i Shohista Nafasova yashash xonadoni va undagi shart-sharoitlar bilan tanishtirdi.

— Bu yerda bir nafar farzandimiz bilan baxtiyor hayot kechiryapmiz, — deydi u. —



Hamma shart-sharoitimiz bor. Tuman hokimligi, mahalla va boshqa idoralar vakillari ham tez-tez hol so'rab turishadi. Xudoga shukur, kamchiligiimiz yo'q. Turmush o'rtog'imning daromadi ham yaxshi. Bizni shunchalik qo'llab-quvvatlagan davlatimizga rahmat.

Ha, bugun yetim bolalar hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalalari davlat tomonidan izchil qo'llab-quvvatlanaypti. Bu esa ularning baxtli hayot kechirishiga zamin bo'lmoqda.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

